

ARES

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

SJIF 2021: 5.723

2021/04

VOLUME 2

SPECIAL ISSUE 3

Research

*We increase scientific
potential together!*

ARES.UZ

Exact Sciences
Natural Sciences
Technical Sciences
Pedagogical Sciences
Medical Sciences
Social and Humanitarian Sciences



PERSPEKTIVA HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHA

Muazzam Xolboeva

Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Rabbina Atajanova

ANNOTASIYA

Perespektiva bilan qiziqmagan holda, rassom o'zining ko'z o'lchami yordamida manzara rasmini chizishi mumkin. Rassom o'z qo'llari bilan chizgan manzarada aniq geometrik shakllar bo'lib, shu ob'ektlarni tasvirlashda bir qancha muammolar paydo bo'ladi va qilingan xatolar yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Kalit so'zlar: Perespektiva, havo perespektiva, chiziqli perespektiva, mo'yqalam tasavvur, rassom, kompozitsiya, manzara.

BASIC CONCEPT OF PERSPECTIVE

Muazzam Kholboeva

Student of Chirchik State Pedagogical Institute

Supervisor: Rabbina Atajanova

ABSTRACT

Without being interested in perspective, an artist can draw a landscape using his or her eye size. The landscape, painted by the artist with his own hands, has clear geometric shapes, which creates a number of problems in the depiction of these objects, and the mistakes made are obvious.

Keywords: Perspective, air perspective, linear perspective, brush, imagination, artist, composition, landscape

KIRISH

Mo'yqalam bilan yaxshi muomala qilib, predmetlarni o'z o'rnida ishlatganda ham yaxshi rasm chiza olib bo'lmaydi, sababi, rassom yaxshi tasvirchi emas. Rasmni muvaffaqiyatsiz chiqishiga sabab perspektivani to'g'ri tuzilmaganligidadir. Ko'p yosh rassomlar bu mavzuni murakkab deb hisoblashadi, u esa geometriya fani bilan bog'liqdir. Sizga shuni aytishim kerakki, geometriya fani murakkab fan emas. Asosan, perspektivani asosiy nuqtai nazari yaxshi tushunilsa, hammasi o'z o'rniga tushib ketadi.

Bizni o'rab turgan uch o'lchamli dunyoni perspektiva qonunlari asosida tekis qog'ozga yoki xolstga ikki o'lchamli qilib tasvirlashda yordam beradi. O'rta asrlarda

ijod qilib o'tgan rassomlar rasm chizishda o'z tajribalarini oshirib, ob'ektni kuzatish orqali olib borishgan va mana shu ob'ekt tasvirlari ularning rasmlarida qanaqadir boshqacha bo'lib qolardi. Uyg'onish davrining rassomlari bu masalaga jiddiy yondashishganlar va nihoyat italiyalik arxitektor Brunelleski perspektivaning asosiy qonun-qoidalarini ochdi va xozirgacha rassomlar shu qonun-qoidalar asosida rasm chizishmoqda.

Ha, perspektiva bilan qiziqmagan holda, rassom o'zining ko'z o'lchami yordamida manzara rasmini chizishi mumkin. Rassom o'z qo'llari bilan chizgan manzarada aniq geometrik shakllar bo'lib, shu ob'ektlarni tasvirlashda bir qancha muammolar paydo bo'ladi va qilingan xatolar yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bu rasmda gorizont chizig'i dengiz orqali aniqlanadi. Agarda dengiz tasviri bo'lmaganda, biz gorizont chizig'ini ko'z o'lchami bilan tasvirlab olar edik. (rasmda punktir chizig'i orqali ko'rsatilgan)

Eng oldin biz "gorizont" so'zining ma'nosini aniqlab olishimiz zarur. Perespektivaga nisbatan ishlatiladigan haqiqiy gorizont – bu oddiy gorizont chiziqi bo'lib, u bizning ko'z o'lchamimiz bilan o'lchaniladi.

Dengiz yoki cho'lda bu chiziq – gorizontdir. Boshqa hollarda haqiqiy gorizont bu tepaliklar, daraxtlar yoki binolar bo'lib, uni topishga to'g'ri keladi. Ba'zan, bu ish ham oson emas, lekin bu rasmda hech qanday muammoni keltirib chiharmaydi.




Bu yerda haqiqiy gorizont chiziqi dengiz chiziqiga to'g'ri keladi. Tepaliklar orqali bu chiziqni davom ettirib, (eskizda u punktir bilan tasvirlangan) oldinda o'sayotgan daraxtlar tomon davom qildirish mumkin. Mavzuni murakkablashtirmay turib, bu yerda oddiy gorizont haqida terminsiz so'z yuritiladi.

Gorizont chizig'i tushunchasi hamisha nazorat kengligi darajasi bilan bog'liq. Gorizont chizig'i qog'ozda aniqlanib, siz shuni tushunishingiz kerakki, hamma ob'ektlar nazorat ko'z o'lchamidan yuqorida, undan pastda joylashgan hamma ob'ektlar gorizontdan pastdadir.


NATIJALAR VA MUHOKAMA

Perespektiva tushunchasi quyidagi ko'rinishga asoslangan bo'lib, rasmda bizdan uzoqlashayotgan predmetlar o'lchami kichiklashib borayotganday bo'lib ko'rinadi, haqiqatan ham bu to'g'ridir. Buni tekshirish juda oson.

Ushbu rasmda bir qancha ustunlar vertikal ravishda bir xil balandlikda bir chiziqli joylashgan bo'lib, oxiri bir nuqtada to'xtaydi. Bu nuqta - ko'chmas nuqta (KN) deb atiladi. Agar ustunlar to'g'ri tekislikda joylashganda edi, ko'chmas nuqta to'g'ridan – to'g'ri gorizont chizig'iga to'g'ri kelar edi.




1-rasm



2-rasm

Navbatdagi rasmda ko'rsatilganday, ustunlar tepasidan biz bir chiziqli o'tkazsak, ikkinchi chiziqni ustunni yer bilan tutashgan joyidan tortib borsak, ikkita chiziq (biz ularni ko'chmas chiziqlar deb ataymiz) bir – biri bilan ko'chmas nuqtada (KN) uchrashadi.

Quyidagi rasmda ko'rsatilishicha, ustunlar orasidagi masofani bir xil yasashda kichraytirishlar oraliqini qanday qilib hisoblash ko'rsatilgan, chunki ular bir – biridan bir xil masofada turishibdi. hamma ustunlar balandligi teng ikkiga bo'lingan bo'lib, o'rta nuqta orqali to'g'ri chiziq o'tkaziladi. Birinchi ustunning tepa nuqtasidan ikkinchi ustunning o'rtasidan chiziq o'tkaziladi. Bu chiziq bilan pastki ko'chmas chizig'i kesishmasi uchinchi ustun pastki nuqtasini beradi va bular orasidagi intervaldir.



3-rasm

Shu paytgacha siz bilan ko'chmas nuqtalar haqida gaplashdik. Navbatdagi rasmda tug'ri to'rtburchak qurilmasi tasvirlangan. Uning tomonlari perespektiva qonunlariga rioya qilib, uning yuqori va pastki chiziqlari har xil ko'chmas nuqtasi tomon intiladi. Shu uslub har qanday to'g'ri to'rtburchakli ob'ektlarni aniq chizishda

yordam beradi. Sizning qurilmangiz to'g'ri tasvirlangan bo'lsa, unda ikkita ko'chmas nuqta gorizont chiziqida bo'ladi. To'g'ri, ko'pincha binolar murakkab chizmalarga ega bo'lib, har bir murakkab ishlangan binoni sodda bir necha to'rtburchaklarga bo'lib tashlab, har qaysisi bilan aloqida ish olib borish kerak. Rasmda ko'rsatilganday, hamma yuqorida chiziqlar burchak ostida pastga, pastdagilari esa, burchak ostida yuqoriga intiladi.

Va niqoyat, navbatdagi ob'ekt ko'rinishi gorizont chiziqidan yuqori, ob'ekt ko'rinishi kuzatuvchining ko'z o'lchami darajasidan pastda joylashgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, san'at asarlari o'quvchilarni estetik tarbiyalashda badiiy ahamiyatli bo'libgina qolmay, balki axloqiy tarbiyada ham asosiy o'rin egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san'at yoshlarni milliy g'urur va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik, do'stlik va o'zaro yordam g'oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega.

O'quvchilarga mavzuli kompozitsiya ishlashni o'rgatish ularni obrazli fikrlashga va ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishga, hayotdagi go'zallik va yangiliklarni ko'ra bilish malakalarini shakllantirish, voqea va hodisalarni umumlashtirish va ichki hissiyotni badiiy obrazlarda tasvirlashga imkon beradi.

O'quvchilarni mavzuli kompozitsiya bo'yicha ijodkorlikka o'rgatishdan asosiy maqsad milliy ma'naviyat va ahloqiy an'analar asosida kelib chiquvchi insonparvarlik va realizm metodlari, yuksak mahorat va chuqur tasviriy madaniyatni egallagan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Bu vazifalarni hal qilishda rangtasvir mashg'ulotlarining o'рни va roli beqiyosdir.

“Manzara kompozitsiyalarini yaratishda perspektivaning afzalliklari” mavzusida ishlashni pedagogik zaruriyat sifatida o'rganildi;

“Manzara kompozitsiyalarini yaratishda perspektivaning afzalliklari” mavzusida kompozitsiya ishlashda buyuk rassomlar ijodiy merosidan foydalanishga erishildi;

REFERENCES

1. Атажанова, Р. Р. (2020). Рабочая тетрадь по изобразительному искусству как средство повышения креативного мышления самостоятельной работы учеников в младших классах. Academic Research in Educational Sciences, 1(2), 201-204.
2. Халилов Р. Ш., Атажанова Р. Р. (2018). Использование рабочей тетради в обучении изобразительной деятельности в начальном классе. Молодой учёный, № 7 (193). 196-199.

3. Rakhimovna, A. R. (2020). Art workbook as a means of improving the efficiency of independent work of pupils in younger classes. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (5), 54-56.
4. Р Р Атажанова, Н Р Атаева. (2020). Роль изобразительной деятельности во всестороннем развитии дошкольников Academic research in educational sciences, 4, 450-454.
5. Hasanov, R. Maktabda tasviriy san`at mashgulotlarini takomillashtirish yullari.; Toshkent, 1986.
6. Hasanov, R. Maktabda tasviriy san`atdan davlat tahlim standartlarini amaliyotga joriy etish. Toshkent; 2000.
7. O`zbekiston san`ati.(1991-2001 yillar)Toshkent. SHark; 2001
8. Hasanov, R. Maktabda tasviriy san`atni o`qitish metodikasi. Toshkent;Fan, 2004.

CONTENTS

Volume 2, Special Issue 3, APRIL, 2021

Toyloqova, E. (2021). MISSIONERLIKNING YOSHLAR ONGIGA SALBIY TA'SIR. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 145-148.

Turg'unboyeva, M. (2021). TOSHKENT SHAHRINING TARIXIY TARAQQIYOTI BO'YICHA MULOHAZALAR. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 288-296.

Umurzoqov, S. D. (2021). GEOGRAFIYA TA'LIMIDA FANLARARO A'LOQANING UMUMIY MASALALARI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 160-164.

Umurzoqov, S. D. (2021). MAKTABDA GEOGRAFIYA FANINI YANADA SAMARALIROQ OLIB BORISH CHORA TADBIRLARI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 297-301.

Uralova, S. A. (2021). TO'RT FAZILATLI MENEJERLAR BILAN ISHLASHNI YOQTIRUVCHI XODIMLAR. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 263-267.

Usanboyev, J. F. (2021). YOSHLARNI BARKAMOL AVLOD ETIB TARBIYALASHNING MUHIM MASALALARI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 198-201.

Uzaqov, D. A. (2021). YORDAMCHI PROYEKSIYALASH USULLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI AHAMIYATI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 202-208.

Xolboeva, M. (2021). PERSPEKTIVA HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHA. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 312-316.

Хошимова, М. Б. (2021). SALSOLA RICHTERI (МОҚ.) КАР. ЕХ LITV. ТАРҚАЛИШИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 443-448.

Xusanova, K. J. (2021). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ONA TILI DARSLARIDA BILIMINI TEKSHIRISH USULLARI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 317-319.

Yo'ldosheva, N. S. (2021). TIL TA'LIMI HAQIDA MULOHAZALAR. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 335-339.

Абдурахатова, А. А. (2021). ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ПОИСКИ В ПРОЗЕ АЙТМАТОВА. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 367-371.

Абдувахапов, Т. Ж. (2021). ВТОРАЯ СТОЛИЦА СОГДИАНЫ. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 372-375.

Исмойилова, М. М. (2021). МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 232-236.
